O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDESINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti rektori __________ X.B.Yunusov
2025 yil “29” ___08___

Ro‘yxatga olindi: 60410800-1.05
2025 –yil “29” ___08___

# BIZNESGA KIRISH

## O‘QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 400000- biznes, boshqaruv va huquq |
| **Ta’lim sohasi:** | 410000 – biznes va boshqaruv |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | 60410800 - Menejment |

**Samarqand 2025**

| Fan/modul kodi | | O'quv yili | Semestr | ECTS - Kreditlar | |
|---|---|---|---|---|---|
| BK 1105 | | 2025-2026 | 1 | 5 | |
| **Fan/modul turi:** Majburiy | | **Ta'lim tili** O'zbek | | **Xaftadagi dars soatlari** 4 | |
| 1. | **Fanning nomi** | | **Auditoriya mashg'ulotlari (soat)** | **Mustaqil ta'lim (soat)** | **Jami yuklama (soat)** |
| | **Biznesga kirish** | | 60 | 90 | 150 |

2\. **I. Fanning mazmuii**

Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarga mamlakatda Islohotlar sharoitida biznesni talab darajasiga chiqarish, qishloq xo'jaligini rivojlantirishda iqtisodiy samaradorlik kategoriyalaridan samarali foydalanish, mahsulot yetishtirishda innovatsion texnika va texnologiyalarni sohaga tadbiq etishda mahsulot tannarxini kamaytirish hamda uni agrosanoat majmuida ishlab chiqarishida yangi va qayta ishlangan mahsulotlarni yil davomida iste'molchilarga yetarli miqdorda, past tannarx va bahoda sifatini buzmagan holatda yetkazishda shartnomalar asosida buyurtma stollaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini joriy etish, Respublika mikyosida qobul qilingan qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va Qarorlari, hukumat Qarorlari va farmoyishlarini tadbiq yetish, biznes-reja loyihasini tayyorlashda tarmoqda barqaror bozor munosabatlarini o'rnatish, bilimlar majmuini o'rganish asosida, ularni bajarishni ta'minlashdir.

Fanning vazifasi - biznes reja va uning tarkibiy qismlariga bo'lgan asosiy talablarni tadqiq qilish; -biznes rejani mustaqil ishlab chiqish ko'nikmasini shakllantirish; - iqtisodiy ko'rsatkichlarga ishlov berish ko'nikmalarini ishlab chiqish, bozor tavsifi va tendensiyalarini aniqlash, biznes rejani ishlab chiqishda dasturiy mahsulotlardan foydalanish; -investitsion loyihalar uchun biznes rejalarni tayyorlash va ekspertizadan o'tkazish bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

**II.Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari).**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-Mavzu. Fan haqida tushuncha uning predmeti, maqsadi, vazifasi va tadqiqot usullari.**

Qishloq xo'jaligida biznesga kirish fani haqida tushuncha uning predmeti, maqsadi, vazifasi va tadqiqot usullari. Biznes-rejaning rezyumesi (qisqacha mazmuni). Korxona faoliyatida biznes rejalashtirishning ahamiyati. Korxona ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish. Rejalashtirishning huquqiy-iqtisodiy asoslari. Davlat siyosatida biznes-rejaning o'rni va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi

**2-Mavzu: Korxona ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirishning huquqiy-iqtisodiy asoslari va davlat siyosatida biznes-rejaning o'rni**

Korxona ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish Rejalashtirishning huquqiy-iqtisodiy asoslari. Davlat siyosatida biznes-rejaning o'rni va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi. Biznes-rejaning rezyumesi (qisqacha mazmuni). Korxona faoliyatida biznes rejalashtirishning ahamiyati

**Iqtisodiyot va menejment kafedrasidagi "Biznesga kirish" fanining o'quv dasturiga Top-300 OTM ta'lim dasturlari asosida quyidagi qo'shimchalar kiritildi**

| № | O'quv dasturidagi mavzu nomi | TOP-300 ta'lim dasturi bo'yicha Xorijiy oliy ta'lim tashkiloti nomi | Top-300 ta'lim dasturi asosida kiritilgan qo'shimchalar |
|---|---|---|---|
| 1 | 4-Mavzu. Korxonaning biznes -rejasi. | Baykov Ye.A. Teoriya menedjmenta: Uchebnik.teoreticheskie osnovы menedjmenta. – Cankt-Peterburg: SPbGIKiT, 2017. | Korxonaning biznes-rejasi. Biznesni davlat tomonidan tartibga solish. Korxonaning biznes–rejasini amalga oshirishda turli tashkilotlar, korxonalar faoliyati. Biznes-rejaning mohiyati va vazifalari. Biznes-rejaning o'rni va uni bajarilishini boshqarish usullari. |
| 2 | 7-Mavzu. Biznes - rejaning asoslanganligi va ishonchliligi. | Виханский О.С., Наумов А.И. Менеджмент., М.:-6-е изд., «ИНФРА-М», «Магистр», 2017. С. 656. | Biznes-rejaning korxona iqtisodiyotini yaxshilashdagi vazifalari, xususiyatlari va bosqichlari. Biznes-rejaning asoslanganligi. Biznes-rejaning ishonchliligi. Biznes-rejanining kichik biznes va xususiy tadbirkorlikdagi ishlab chiqish jarayonini boshqarishdagi faoliyati. |



**3-Mavzu. Bozor sharoitlarida korxona faoliyatini tartibga solish va rejalashtirishda innovatsiyalarning urni. Biznesning axborot asoslari.**

Bozor sharoitlarida korxona faoliyatini tartibga solish. Biznes-rejalashtirishda innovatsiyalarning o'rni. Qishloq xo'jaligi Biznesida ma'lumot, axborot va tahliliy xulosalarning o'rni .Asosiy iqtisodiy qonunlarning mohiyati va ularning statistika va dinamikadagi ko'rinishlari. Biznes-rejaning ilmiy-amaliy jihatdan asoslangani

**4-Mavzu.Korxonaning biznes -rejasi.**

Korxonaning biznes-rejasi. Biznesni davlat tomonidan tartibga solish. Korxonaning biznes–rejasini amalga oshirishda turli tashkilotlar,korxonalar faoliyati. Biznes-rejaning mohiyati va vazifalari. Chorvachilikni sifatli yem-xashak bilan ta'minlashda. Biznes-rejaning o'rni va uni bajarilishini boshqarish usullari. O'simlikchilikda (agrotexnologiya, mexanizatsiya yo'nalishlarida) biznes rejani o'rni va uni bajarilishi menejmenti.

**5-Mavzu: Qishloq xo'jaligi tarmoqlarida Biznes-rejaning mohiyati,vazifalari va uni bajarilishi menejmenti.**

Veterinariya sohasida biznes-rejaning mohiyati va vazifalari.Chorvachilikni sifatli yem-xashak bilan ta'minlashda Biznes-rejaning o'rni va uni bajarilishini boshqarish usullari. Boshqarishda biznes rejani o'rni va uni bajarilishi menejmenti.

**6-Mavzu. Innovatsion faoliyatni yuksak zamonaviy texnologiyalarga asoslangan holda jadal rivojlantirishda Biznes-rejani tayyorlash bosqichlari.**

Qishloq xo'jaligining tarmoqlarida ishlab chiqarish jarayoniga innovatsion texnika-texnologiyalarni innovatsion faoliyatni yuksak zamonaviy texnologiyalarga asoslangan holda jadal rivojlantirishda Biznes-rejani tayyorlash. Tarmoqda Biznes-reja tuzilmasi. Biznes-reja va uni amalga oshirishda innovatsion izlanishlarda ilmiy -tadqiqot va tajrnba-konstruktorlik ishlarini (ITTKI) tashkil yetishdagi muammolar. Innovatsion izlanishlar, ilmiy-tadqiqot va tajrnba- konstruktorlik ishlarini tashkil yetishda Biznes-rejaning ahamiyati.

**7-Mavzu. Biznes - rejaning asoslanganligi va ishonchliligi.**

Biznes - rejaning korxona iqtisodiyotini yaxshilashdagi vazifalari, xususiyatlari va bosqichlari. Biznes - rejaning asoslanganligi. Biznes - rejaning ishonchliligi. Biznes-rejanining kichik biznes va xususiy tadbirkorlikdagi ishlab chiqish jarayonini boshqarishdagi faoliyati. Kichik biznes va xususiy tadbnrkorlik faoliyatining rivojlantirishda innovatsion texnika va texnologiyalarni tutgan o'rni. Biznes-rejanining kichik biznes va xususiy tadbirkorlikdagi ishlab chiqish jarayonini boshqarishdagi faoliyati. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga doir Farmonlari, Qarorlari va YalM dagi ulushi.

**8-Mavzu. Biznes-rejani bajarishda tarmoqning resurslar bilan ta'minlanganligi.**

Biznes-rejani bajarishda tarmoqning resurslar bilan ta'minlanganligi. Iqtisodyotni rivojlantirishda biznes-rejani ahamiyati. Biznes-rejani bajarishda xorij investisiyalarining ahamiyati. Qishloq xo'jaligi tarmog'ida rejalashtirilayotgan biznesni sug'urtalash. Qishloq o'jaligi tarmog'ida rejalashtirilayotgan biznesni sug'urtalashning o'ziga xos xususiyatlari. Qishloq xo'jaligida rejalashtirilayotgan biznesni sug'urtalash. Qishloq xo'jaligi tadbirkorligida xavf-xatarni oldini olishning innovatsion usullar.

**9-Mavzu. Qishloq xo'jaligida biznes-reja, uning bo'limlari va mazmuni.**

Qishloq xo'jaligida biznes-reja, uning bo'limlari va ularni mazmuni.horvachilik

tarmog‘ida mahsulot tannarxini kamaytirishda biznes-rejaning o‘rni. Biznes-rejaning ishlab chiqarish bo‘limi va xarajatlarini hisoblash usuli. Korxonaning tarmoqdagi va marketing holati tahlili. Korxona mahsulotini tavsiflash. Mahsulotni baholash usullari va tovarning hayotiylik davri. Korxonaning tarmoqdagi va marketing holati tahlili.

**10-Mavzu. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida rejalashtirilayotgan biznesni sug‘urtalash.**

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida rejalashtirilayotgan biznesni sug‘urtalashning o‘ziga xos xususiyatlari. Qishloq xo‘jaligida rejalashtirilayotgan biznesni sug‘urtalash. Qishloq xo‘jaligi tadbirkorligida xavf-xatarni oldini olishning innovatsion usullari

Marketing dasturi haqida tushuncha, uning tuzilishi, bolimlari va asosiy jihatlari. Dastur bu - korxona marketing faoliyatini bozor hissasini egallash hamda foyda olishga qaratilgan quroldir. Korxona bozori tomon yo‘naltirilgan ishlab chiqish ketma-ketligi va asosiy bo‘limlari. Vaziyatni tashkil etish va marketing sintezi. Korxona faoliyatini marketing tamoyillari asosida rivojlantirishni asosiy yo‘nalishlarini tanlab olish.

**III. Seminar mashg‘ulotlari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar.**

*Seminar mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:*

1. Korxona faoliyatida biznes rejalashtirish
2. Korxonaning biznes – rejasining huquqiy-iqtisodiy asoslari va davlat siyosati.
3. Biznes - rejaning asoslanganligi va ishonchliligi
4. Biznes-reja, uning bo‘limlari va mazmuni
5. Korxona mahsulotini tavsiflash
6. Korxonaning marketing rejasi
7.Qishloq xo‘jaligi biznes rejasida ishlab chiqarish rejasini loyihasini tayyorlash.
8.Tashkiliy reja va menejment
9.Moliyaviy reja
10.Biznes-rejaning samaradorligini baholash
11.Qishloq xo‘jaligida biznes rejani tayyorlash
12.Banklardan kredit olish bo‘yicha biznes reja loyihasini tayyorlash
13. Investitsion loyihalar uchun biznes rejalarni tayyorlash va ekspertizadan o‘tkazish bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirish.
14.Qishloq xo‘jaligida biznesni rejalashtirishning iqtisodiy samaradorligi
15.Biznes reja va uning tarkibiy qismlariga bo‘lgan asosiy talablarni innovatsion faoliyatni boshqarish

**IV.Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar.**

*Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:*

1.An’anaviy rejalashtirishni biznes-rejalashtirishdan farqi, ularning iqtisodiy va huquqiy asoslari
2. Korxonalarda prognozlash va rejalashtirishning xususiyatlari.
3.Iqtisodiyot sohalarida biznes loyiha tushunchasi va uning turlari.
4.Biznes-rejalashtirishning zamonaviy konsepsiyalari,hisoblash va uning ustuvor yo‘nalishlarini rivojlantirishning mohiyati va istiqbollari.
5.Biznes-rejalashtirish – xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalarining boshqarish instrumenti sifatida.



**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti “Iqtisodiyot va meneiment” kafedrasi dotsenti, i.f.n. I.Salamov va kafedra assistenti Sh.Nurmanovlar tomonidan 60410800-Menejment ta’lim yo‘nalishi talabalariga “Biznesga kirish” fanidan tayyorlangan o‘quv dasturiga**

## TAQRIZ

“Biznesga kirish” fani 60410800-Menejment ta’lim yo‘nalishi talabalariga mo‘ljallangan bo‘lib, o‘quv rejada 150 soat, shu jumladan 20 soat ma’ruza, 40 soat seminar va 90 soat mustaqil ta’lim soatlari ajratilgan bo‘lib, majburiy fanlar blokidan o‘rin olgan.

“Biznesga kirish” fani o‘quv dasturi 10 mavzuni o‘z ichiga olib, fan 60410800-Menejment ta’lim yo‘nalishida ta’lim olayotgan bakalavrlar bilishi, ko‘nikma hosil qilishi va malakaga ega bo‘lishini ta’minlaydigan tegishli mavzularni qamrab olgan.

“Biznesga kirish” fani o‘quv dasturida kichik biznes va tadbirkorlikning mohiyati, iqtisodiyotda tutgan o‘rni, tadbirkorlikning turiari va shakllari, xorijiy mamlakatlarda hamda O‘zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanishi, kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, rejalashtirish, tahlil etish, boshqarish, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko‘rsatuvchi bozor infratuzilmalari, kichik biznes va tadbikorlik subyektlarining moliyaviy faoliyati, kredit bilan ta’minlash shakllari, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini baholash, O‘zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari bayon etilgan.

Mavzularning mazmunidan ko‘rinib turibdiki, ular fanni o‘rganish ketma-ketligiga rioya qilingan holda tartib bilan tuzilgan bo‘lib, shu mavzuni o‘rganish uchun lozim bo‘lgan jihatlarni qamrab olgan va fanni o‘rganish ketma-ketligiga mos keladi.

Umuman olganda, fan dasturi yuqorida qayd etib o‘tganimizdek, qo‘yilgan talablarga mos holda tuzilgan, undan 60410800-Menejment ta’lim yo‘nalishi talabalarini o‘qitishda foydalanish uchun tavsiya etaman.

**Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti “Iqtisodiyot va biznes” kafedrasi, i.f.b.f.d. (PhD)** **Sh.A.Muratov**

SAMARQAND AGROINNOVATSIYALAR VA TADQIQOTLAR INSTITUTI
TASDIQLAYMAN
(imzo)

XODIMLAR BO‘LIMI

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "Iqtisodiyot va menejment" kafedrasi dotsenti, i.f.n. I.Salamov va kafedra assistenti Sh.Nurmanovlar tomonidan 60410800-Menejment ta'lim yo'nalishi talabalariga "Biznesga kirish" fanidan tayyorlangan o'quv dasturiga**

## TAQRIZ

Mamlakatimizda tahlil fanining rivojlanishi asosan mustaqillik yillariga to'g'ri keladi. Shu yillarda uning nazariy va metodologik asosi yaratildi hamda buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlariga asoslangan shakl va turlari vujudga keldi. Eng muhimi, mamlakatimizda O'zbekistonning o'ziga xos iqtisodiy taraqqiyot yo'liga, mos bo'lgan fanlar shakllantirildi va mamlakatni rivojlantirishning "Taraqqiyot strategiyasi"ga xos va mos holda bosqichma-bosqich takomillashmoqda.

"Biznesga kirish" fani talabalarga biznes rejalashtirishda faol tadbirkorlik, ishbilarmonlik jarayonlarini mulkchilikning har xil turlari va shakllarida innavatsion texnika va texnologiyalar asosida olib borish, real biznes-rejani tuzish va natijada iqtisodiy samaradorlikka erishish imkoniyatlarini joriy etishning bozor iqtisodiyoti talablari darajasi asosida tadbirkorlik sohasida qaratilgan biznes samaradorligini oshirish va bugungi kun talabi asosida samaradorlikni boshqarishninig mohiyati, qo'yilgan maqsadga erishish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni hosil qilishdan iborat.

"Biznesga kirish" fani 60410800-Menejment ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan o'quv rejada majburiy fanlar blokidan o'rin olgan bo'lib, ushbu fanni o'zlashtirish uchun jami 150 soat, shu jumladan 20 soat ma'ruza, 40 soat seminar dars va 90 soat mustaqil ta'lim soatlari ajratilgan.

Fan dasturini mazmuni shuni ko'rsatadiki, fan dasturini tayyorlashda fanni o'rganish ketma-ketligiga rioya qilingan holda tartib bilan tuzilgan bo'lib, shu mavzularni o'rganish uchun lozim bo'lgan savollarni qamrab olgan va fanni o'rganish ketma-ketligiga mos keladi.

Umuman olganda, fan dasturi qo'yilgan talablarga javob beradi, talabalarda ushbu fan bo'yicha yetarlicha bilim va malakaga ega bo'lishlari uchun mos holda tuzilgan, undan "Biznesga kirish" fani 60410800-Menejment ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitishda fan dasturi sifatida foydalanish uchun tavsiya etaman.

**Samarqand iqtisodiyot va servis instituti**
**"Raqamli iqtisodiyot" kafedrasi mudiri,**
**iqtisodiyot fanlari doktori, professor** K.J.Mirzaev

XODIMLAR BO'LIMI
IMZONI TASDIQLAYMAN
KADRLAR BO'LIMI BOSHLIG'I



| | |
|---|---|
| | 6.Biznes-rejalashtirishda tashqi muhitni baholash xususiyatlari.<br>7.Korxonaning taktik va biznes rejasining o'zaro aloqasi.<br>8. Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarini samaradorligini baholash.<br>Buyurtma stollari ishini tashkil etish imkoniyatlari: "Dala-iste'molchi", Dala-chorva majmuasi", "Dala-magazin-uy" va h.o.<br>9. Korxonalarda noaniqlik va risk: o'zaro aloqa mexanizmi.<br>10.Iqtisodiy islohotlar sharoitida innovatsion texnika va texnologiyalar asosida tarmoqni rivojlantirish istiqbollari<br>11.Korxonaning potensial risklari tizimi. Innovatsion texnika va texnologiyalarga yo'naltirilayotgan investisiyalardan samarali foydalanish.<br>12. Korxona faoliyatiga risklar ta'sirining salbiy oqibatlarini kamaytirish usullari.<br>13. Zamonaviy tadbirkorlikda biznes-rejani roli, ahamiyati, mahalliy va xorij tajribalari.<br>14.Biznes-rejalashtirishning asosiy texnologik jarayonlari (shu jumladan limonchilik, baliq go'shti) mahsulotlarini ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazish bo'yicha buyurtma stollari faoliyatini tashkil yetish istiqbollari.<br>15.Biznes-rejalashtirish jarayoni tamoyillarini amalga oshirishda innavatsion xizmatlarni, iste'molchilarga-buyurtmachilarga mahsulot va tovarlarni buyurtma stollari yordamida yetkazishni tashkil yetishda klasterlarning ahamiyati.<br>16. Biznesni konsepsiyasina yaratishda iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan innavatsion yo'nalishilarning tadbirkorlar ishini tashkil yetish tajribalariga asoslanishi.<br>17. Mulkchilikning turli innavatsion shakllarida Ishlab chiqarish kuchlarini va oborot mablag'larga bo'lgan extiyojni aholi tomarqa xo'jaliklarida ta'minlashga qaratilgan loyihalarni joriy etishda biznes-rejalarini tayyorlash.<br>18. Mulkchilikning turli innavatsion shakllarida Ishlab chiqarish kuchlarini va oborot mablag'larga bo'lgan extiyojni aholi tomarqa xo'jaliklarida ta'minlashga qaratilgan loyihalarni joriy etishda biznes-rejalarini tayyorlash.<br>19.Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari (shu jumladan chorvachilikga ixtisoslashgan) mahsulotlarini va boshqa tovarlarni ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazish bo'yicha "Magazin-buyurtmachi" va boshqa shakldagi buyurtma stollari faoliyatini tashkil yetish istiqbollari.<br>20.O'simlikshunoslikga ixtisoslashgan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarida iqtisodiyotni rivojlantirishda innavatsion g'oyalar asosida kambag'allikdan chiqarishda, bandlikni ta'minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'rni. |
| 3 | **V. fan o'qitilishning natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:<br>• mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligi darajasini va innovatsion jihatdan taraqqiy yetganini belgilovchi asosiy omil sifatida tarmoqni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan samarali bo'lishligini biznes-reja asosida rivojlantirish to'g'risida ***tasavvurga ega bo'lishi;***<br>• talaba tarmoqda innovatsion iqtisodiyotga oid iqtisodiy statistik va hisobot ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish, milliy tarmoqlar, xududiy va korxona iqtisodiyotini uzaro aloqadorligini ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***<br>• talaba sanoat integrasiyasi, mamlakat- sanoatining tarkibi, uning innovatsion rivojlanib borishi, sanoat tarkibiga kiruvchi baliqchilik tarmoqlarining ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan |

| | |
|---|---|
| | rivojlanishini hozirgi holati, ilmiy-innovatsion faoliyatning qonuniy va normativ xududiy asosini bilish va qo‘llash bo‘yicha yechimlar qabul qilish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.*** |
| 4 | **VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma’ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| 5 | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yurutish hamda joriy, oraliq nazorat shaklllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazoratni muvaffaqiyatli topshirish. |
| 6 | **Asosiy adabiyotlar**<br>1. Yo‘ldoshev, S.Sh.Yusupov, G.E.Zaxidov. Menejment asoslari va biznes reja. Darslik. Toshkent:O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2017.-252 bet.<br>2. Ergashev R. ,Xalikov S., Toshboev A.J. Innovatsion iqtisodiyot. Toshkent- Iqtisod-Moliya 2019 yil.<br>3. Aliyev U.E. Innovatsion iqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma.–T:“Iqtisodiyot”,2019-236 bet<br>4.Виханский О.С., Наумов А.И. Менеджмент., М.:-6-е изд., «ИНФРА-М», «Магистр», 2017. С. 656.<br>5. David Stokes and Nick Wilson/ Small business management and entrepreneurship stokes wilson Sixth Edition. Prniter in China by RR Donnelley Prini Number:07 Prini Year: 2015<br><br>**Qo‘shimcha adabiyotlar**<br>1.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik. “Toshkent, “Tasvir” nashriyot uyi, 2021 yil. – 52 bet.<br>2.Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g‘oyamizning poydevoridir. Toshkent, “Tasvir” nashriyot uyi, 2021 yil. – 36 bet.<br>3.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022 yil. – 416 bet.<br>4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi “Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-187-son qarori.<br>5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yilning 7 iyundagi “Har bir oila—tadbirkor” dasturini amalga oshirish to‘g‘risidagi Qarori// “Xalq so‘zi”, 2018 yil 8 iyun<br>6.Baykov Ye.A. Teoriya menedjmenta: Uchebnik. Teoreticheskie osnovы menedjmenta. – Cankt-Peterburg: SPbGIKiT, 2017.<br><br>**Axborot manbalari** |



| | |
|---|---|
| | 1.www.gov.uz<br>2.www.lex.uz<br>3.www.customs.uz<br>4.www.lojistiks.uz |
| 7 | Fan dasturi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti huzuridagi “840000-Veterinariya” ta’lim sohasi bo‘yicha Kengashining 2025-yil “28” 08 dagi 3 -sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan. |
| 8 | **Fan/modul uchun mas’ullar:**<br>I.Salamov– SamDVMCHBU, “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasi dotsenti, i.f.n.<br>Sh.Nurmanov– SamDVMCHBU, “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasi assistenti |
| 9 | **Taqrizchilar:**<br>**K.J.Mirzayev** - Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi mudiri, i.f.d., professor.<br>**Sh.A.Muratov** - Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti “Iqtisodiyot va biznes” kafedrasi i.f.b.f.d (PhD) |